

МАHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI NORMATIV-  
HUQUQIY HUJJATLARI LOYIHASIGA QO‘YILGAN TALABLAR

Aliqulov Komiljon Urol o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi IIV Surxondaryo

akademik litseyi Huquqshunoslik fani

o‘qituvchisi

94-462-57-73

[komilaliquulov93@gmail.com](mailto:komilaliquulov93@gmail.com)

Mamlakatda qabul qilinayotgan har qanday normativ-huquqiy hujjatlar ma’lum belgilangan talablar va shartlarga mos holda qabul qilinadi. Ushbu talablar normativ-huquqiy hujjatning yuridik xususiyati va kuchiga ko‘ra turli darajada bo‘lishini ko‘rishimiz mumkin.

Shu o‘rinda, mahalliy davlat hokimiysi organlari tomonidan qabul qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlarga qo‘yiladigan umumiylar maxsus talablar mavjud ekanligini ta’kidlashimiz lozim. Ushbu hujjatlarga qo‘yilgan umumiylar talablar Konstitutsiya va qonunlarda aks etgan. Xususan, “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g’risida”gi qonunning 23-moddasida normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqishda amal qilishi kerak bo‘lgan talablar berilgan. Ushbu talablar quyidagilar:

qonunchilikning holatini, normativ-huquqiy hujjat loyihasining huquqiy jihatdan tartibga solish predmeti bo‘yicha qo‘llanilish amaliyotini o‘rganadi;

ijtimoiy munosabatlarning muayyan sohasini huquqiy jihatdan tartibga solishga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan bo‘shliqlar va ziddiyatlarni, shuningdek huquqiy jihatdan tartibga solishga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyojni, qonunchilikning samaradorligiga ta’sir etuvchi sabablar hamda shart-sharoitlarni aniqlaydi;

ijtimoiy munosabatlarning tegishli sohasini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni aniqlash nuqtai nazaridan qonunchilikni xatlovdan o‘tkazadi;

davlat organlari va boshqa tashkilotlarning, shuningdek ayrim fuqarolarning takliflarini, ommaviy axborot vositalarining materiallarini, ilmiy va boshqa



tashkilotlarning, olimlar hamda mutaxassislarning maslahatlari va tavsiyalarini, jamoatchilik fikrini aniqlashning boshqa vositalari ma'lumotlarini umumlashtiradi hamda ulardan foydalanadi;

normativ-huquqiy hujjatni amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan moliyaviy-iqtisodiy xarajatlarga bo'lgan ehtiyojni, ularning o'rnini qoplash miqdorlari va manbalarini belgilaydi<sup>1</sup>.

Shu bilan birga, mahalliy davlat hokimiyati organlari normativ-huquqiy hujjatlariga qo'yilgan maxsus talablar O'zbekiston Respublikasining «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi qonuniga va boshqa qonunlarda belgilangan.

Shunga muvofiq, “Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risidagi qonun”ning 22-moddasida Mahalliy davlat hokimiyati organlarining normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash bo'yicha ishini muvofiqlashtirish O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va vazirlikning joylardagi boshqarmalari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishi belgilangan<sup>2</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2021-yil 15-noyabrdagi 19-mh-son buyrug'iga 1-Ilova sifatida tasdiqlangan “Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish, yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirish, huquqiy ekspertizadan o'tkazish Qoidalari”ga ko'ra, loyihani tayyorlashda ishlab chiquvchi:

qonunchilikning holatini, qaror loyihasining huquqiy jihatdan tartibga solish predmeti bo'yicha qo'llanilish amaliyotini o'rganadi;

ijtimoiy munosabatlarning muayyan sohasini huquqiy jihatdan tartibga solishga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan nuqsonlar va ziddiyatlarni, shuningdek huquqiy jihatdan tartibga solishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni, qonun hujjatlarining samaradorligiga ta'sir etuvchi sabablar hamda sharoitlarni aniqlaydi;

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi “Normativ huquqiy hujjatlar to'g'risida”gi qonun // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.04.2021-y., 03/21/682/0354-son

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi “Normativ huquqiy hujjatlar to'g'risida”gi qonun // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.04.2021-y., 03/21/682/0354-son

xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalarini hisobga oladi, shuningdek huquqiy jihatdan tartibga solish borasida boshqa davlatlar tajribasini o'rganadi<sup>3</sup>.

Tushunchaning yoki atamaning ta'rifi uning mazmunini to'liq ochib berishi kerak. Tushunchani yoki atamani aynan shu tushunchaning o'zi va atama orqali, shuningdek o'zi ta'riflanishi lozim bo'lgan boshqa tushuncha va atamalar orqali ta'riflashga yo'l qo'yilmaydi.

Hajmiga ko'ra qaror loyihasi pasayib boruvchi quyidagi tarkibiy birliklarga: bo'limlar, kichik bo'limlar, boblar, paragraflar, bandlar, kichik bandlar va xatboshilarga bo'linishi keltirilgan.

Qaror loyihasining bo'limlari rim raqamlari, kichik bo'limlari va boblari esa arab raqamlari bilan raqamlanishi va sarlavhalarga ega bo'lishi, shuningdek, paragraflar “§” belgisi bilan belgilanishi, arab raqamlari bilan raqamlanishi ko'rsatilgan<sup>4</sup>.

Qaror loyihasining muqaddimasida: mustaqil normativ ko'rsatmalar, qaror qabul qilinishi munosabati bilan o'z kuchini yo'qotgan deb topilishi, o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi lozim bo'lgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga doir havolalar bo'lmasligi, shuningdek, raqamlanmasligi kerak.

Qaror loyihasining qaror qismiga eng muhim bo'lgan huquqiy normalar kiritiladi.

Bandlar kichik bandlar yoki xatboshilarga bo'linishi mumkin.

Kichik bandlar doirasimon qavs bilan yopiladigan kichik harflar bilan belgilanadi. Harflar alifbo bo'yicha ketma-ketlikda bayon qilinishi kerak.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining "Mahalliy davlat hokimiyyati organlari tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish, yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirish va huquqiy ekspertizadan o'tkazish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida" buyrug'i // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.11.2021-y., 10/21/3333/1077-son

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining "Mahalliy davlat hokimiyyati organlari tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish, yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirish va huquqiy ekspertizadan o'tkazish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida" buyrug'i // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.11.2021-y., 10/21/3333/1077-son

Kichik bandlar faqat xatboshilarga bo‘linishi mumkin. Xatboshilar boshlanishida defis yoki boshqa belgilarni ishlatishga yo‘l qo‘yilmaydi<sup>5</sup>.

Qaror asosida ushbu hujjatlarning tarkibiy qismi bo‘lgan nizomlar, qoidalar, yo‘riqnomalar tasdiqlanishi ham mumkin.

“Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g’risida”gi Qonunning 6-moddasiga muvofiq hokim qarorlari normativ-huquqiy hujjatlar ierarxiyasida eng quyi o‘rinda turadi. Ushbu Qonunning 16- moddasiga ko‘ra normativ-huquqiy hujjat o‘ziga qaraganda yuqoriyoq yuridik kuchga ega bo‘lgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq bo‘lishi, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati yuqori turuvchi organlarining qarorlari asosida va ularni ijro etish uchun qabul qilinishi belgilangan<sup>6</sup>. “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g’risidagi qonun”ning 6-moddasida esa hokim o‘ziga berilgan vakolatlar doirasida qabul qilgan qarorlari tegishli hududdagi barcha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar, shuningdek mansabdar shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy<sup>7</sup> deyilgan. Normativ-huquqiy hujjatlarni elektron e’lon qilish bo‘yicha xorijiy davlatlar amaliyotini ko‘rib chiqamiz. Jumladan, 2002-yil oktabrdan Buyuk Britaniyada normativ-huquqiy hujjatlarini elektron e’lon qilishga rasmiy status berildi, 2003-yil 1-apreldan Kanadada normativ-huquqiy hujjatlar “Kanada gazetasi” va PDF formatda e’lon qilish rasman belgilandi, 2004-yil 1-iyunda

<sup>5</sup> O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining “Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar loyihibarini ishlab chiqish, yuridik-tehnik jihatdan rasmiylashtirish va huquqiy ekspertizadan o’tkazish qoidalarini tasdiqlash to‘g’risida” buyrug’i // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 18.11.2021-y., 10/21/3333/1077-son

<sup>6</sup> O‘zbekiston Respublikasi “Normativ huquqiy hujjatlar to‘g’risida”gi qonun // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.04.2021-y., 03/21/682/0354-son;

<sup>7</sup> O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g’risida”gi qonun . // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-y., 9-son

Fransiyada, 2006-yil martdan Belarussiyada normativ-huquqiy hujjatlarni elektron nashr etish rasmiy belgilangan<sup>8</sup>.

Shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-iyundagi “Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatiga “E-qaror” elektron tizimini joriy etish chora tadbirdari to’g’risida”gi 390-sonli qaroriga muvofiq 2021-yil 1-iyuldan boshlab barcha mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari va farmoyishlari, shu jumladan, xizmat doirasida foydalanish uchun mo‘ljallangan qarorlari va farmoyishlarini ishlab chiqish, kelishish, qabul qilish, ro‘yxatga olish va e’lon qilish “E-qaror” elektron tizimi orqali amalga oshirilib kelinmoqda. Ushbu nizomda shuningdek, “E-qaror” elektron tizimini chetlab o‘tgan holda mahalliy davlat hokimiyati organlarining tegishli qarorlari va farmoyishlarini qabul qilishga yo‘l qo‘ylmasligi va bunday hujjatlar yuridik kuchga ega emas hamda u qabul qilingan paytdan e’tiboran hech qanday huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarmasligi qayd etilgan. Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlarni davlat hisobiga olish “E-qaror” elektron tizimi orqali amalga oshirilmoqda<sup>9</sup>.

Qabul qilinishi qaror loyihasining mazmuni va tuzilishini jiddiy ravishda o‘zgartiradigan, qaror loyihasiga doir bo‘lgan fikr-mulohazalar hamda takliflar mavjud bo‘lgan taqdirda manfaatdor tashkilot o‘zining qaror loyihasi variantini “E-qaror” elektron tizimi orqali ishlab chiquvchiga taklif etishi mumkin<sup>10</sup>.

Ishlab chiquvchi 3 kun muddatda manfaatdor tashkilotlar bilan kelishilgan qaror loyihasini elektron tizimdan olib, manfaatdor tashkilotning xulosasini hisobga olgan holda tizim orqali tegishli mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organiga yoki mahalliy vakillik organlari kotibiyatiga jo‘natadi.

<sup>8</sup> Э.В.Талапина Электронное опубликование нормативных актов: зарубежный опыт // Государство и право 2009 - С. 56

<sup>9</sup> Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 23.06.2021-y., 09/21/390/0588-sон

<sup>10</sup> O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining “Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish, yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirish va huquqiy ekspertizadan o’tkazish qoidalarini tasdiqlash to’g’risida” buyrug’i // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 18.11.2021-y., 10/21/3333/1077-son

Hujjat tegishligiga qarab Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organining tarkibiy bo‘linmasi yoki mahalliy vakillik organlari kotibiyati 3 kun muddatda “E-qaror” elektron tizimi orqali kelib tushgan qaror loyihasini ish yurituviga qabul qiladi va uni ko‘rib chiqadi hamda qaror loyihasini elektron raqamli imzo qo‘yish yo‘li bilan kelishadi yoki zarurat bo‘lganda uni ishlab chiquvchiga elektron tizim orqali o‘z taklif va e’tirozlarini ko‘rsatgan holda qaytaradi<sup>11</sup>.

“Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar loyihamalarini ishlab chiqish, yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirish, huquqiy ekspertizadan o‘tkazish Qoidalari”ning 4-bobi Qaror loyihasini yuridik xizmat tomonidan huquqiy ekspertizadan o‘tkazish deb nomlangan bo‘lsa, 5-bobi Qaror loyihasining hududiy adliya organlaridagi huquqiy ekspertizasiga bag’ishlangan<sup>12</sup>.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari normativ-huquqiy tusdagi qarorlarni qabul qilishdan oldin yuridik xizmati xodimi loyihami tegishliligi bo‘yicha hududiy adliya boshqarmalariga huquqiy ekspertizadan o‘tkazish uchun taqdim qilinishini ta’minlaydi.

Kiritilgan loyihamning sifatiga baho berish uchun normativ-huquqiy hujjatni qabul qiluvchi organning qaroriga binoan normativ-huquqiy hujjatning loyihasi boshqa xil (iqtisodiy, moliyaviy, ilmiy- texnikaviy, ekologiya va o‘zga) ekspertizadan ham o‘tkazilishi mumkin. Ekspertlar sifatida tegishli loyihami tayyorlashda ilgari bevosita ishtirok etmagan tashkilotlar va shaxslar jalb etiladi. Ekspertiza o‘tkazish uchun boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlardan olimlar va mutaxassislar taklif etilishi mumkin. Ekspertlar normativ-huquqiy hujjatning loyihasiga baho berishda mustaqildir hamda ekspertiza o‘tkazishni topshirgan organning nuqtai nazari bilan bog’liq emaslar.

<sup>11</sup> O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirining “Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar loyihamalarini ishlab chiqish, yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirish va huquqiy ekspertizadan o‘tkazish qoidalarini tasdiqlash to’g’risida” buyrug’i // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 18.11.2021-y., 10/21/3333/1077-son

<sup>12</sup> O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirining “Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar loyihamalarini ishlab chiqish, yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirish va huquqiy ekspertizadan o‘tkazish qoidalarini tasdiqlash to’g’risida” buyrug’i // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 18.11.2021-y., 10/21/3333/1077-son

Qarorning ko‘rsatma berish qismida “qaror qilaman” so‘zлari yoziladi. Ko‘rsatma beruvchi qism arabcha raqamlar bilan belgilanadigan band va kichik bandlarga bo’linishi mumkin. Agar bandda topshiriq bo‘lsa, u quyidagi sxema bo‘yicha tuziladi: kimga, nima qilish kerak, bajarish muddati. Tashkilotlar va mansabdar shaxslar bajaruvchi sifatida ko‘rsatilishi mumkin. Agar bandda aniq topshiriq bo‘lmasa, u holda “tasdiqlansin”, “ma’qullansin”, “ma’lumot uchun qabul qilinsin” va shu kabi so‘zлarni qo‘llagan holda bayon qilish mumkin. Qarorning ko‘rsatma qismida, zarur bo‘lgan hollarda, qarorni qabul qilish asoslanilgan yuqori turuvchi organlarning huquqiy hujjatlari keltirib o‘tiladi<sup>13</sup>.

Hokim qarorlarini sharhlash unda noaniqliklar topilgan, u amaliyotda noto‘g’ri yoki mantiqqa zid tarzda qo‘llanilgan hollarda amalga oshiriladi. Hokim qarorlariga o‘zi rasmiy sharh beradi. Sharhlash jarayonida qarorlarga tuzatishlar, qo‘sishimchalar va aniqlashtiruvchi normalar kiritilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Xulosa qilib aytganda, mahalliy davlat hokimiyyati organlari tomonidan qabul qilinadigan normativ-huquqiy hujjat loyihibalarining tuzilishi, mazmuni, matni belgilangan talab va qoidalarga mos tarzda ishlab chiqilsa va qabul qilinsa ushbu hujjatlarning sifati va samaradorligi yuqori bo‘ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023. – 80 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g’risida”gi Qonuni (yangi tahriri) // Qonunchilik malumotlari milliy bazasi, 20.04.2021-y., 03/21/682/0354-son; Qonunchilik malumotlari milliy bazasi, 03.03.2022-y., 03/22/756/0180-son
3. “O‘zbekiston Respublikasi mahalliy organlarini qayta tashkil etish to‘g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 4-yanvaridagi Konstitutsiyaviy qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992-yil, 3-son, 146-modda.

<sup>13</sup> Asadov Sh. Mahalliy davlat hokimiyyati organlari: O’quv qo‘llanma.- Toshkent: TDYI nashriyoti. 2012.– B. 77

- 4.Axmedshayeva M.A. Hozirgi zamон davlati va asosiy huquqi nazariyasi muammolari. –Toshkent: TDYUI, 2008. – 329 b.
- 5.Axmedshayeva M.A. Davlat hokimiyati tizimida ijro hokimiyati / Mas’ul muharrir: yu.f.d. prof. Z.M.Islomov. – Toshkent: TDYUI, 2013. – 114 b.
- 6.Jalilov Sh. Davlat hokimiyati mahalliy organlari islohoti: tajriba va muammolar. – Toshkent: O‘zbekiston, 1994. – 192 b.
- 7.Malikova G.R. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining ayrim vazifa va vakolatlarini fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga o‘tkazish (huquqiy-tashkiliy masalalar).: Yurid. fan. nomz. ... diss. avtoref. –Toshkent, 2004. – 24 b.
- 8.Bikova L.A. Munitsipalniye pravoviye akti v pravovoy sisteme Rossiyskoy Federatsii: teoretiko-pravovoy analiz: Dis. ... kand. yurid. nauk: – Moskva, 2010. – 188 s.